

## **KORXONADA BOSHQARUV HISOBI VA UNING HISOB SIYOSATIDA AKS ETTIRILISHI**

D. Umrzakov

Namangan muhandislik qurilish instituti

Xakimova Go‘zal Akbar qizi

Namangan muhandislik-qurilish instituti talabasi.

### **Annotatsiya:**

Maqolada hozirgi sharoitlarda korxonalarda boshqaruv hisobi va uning hisob siyosatida aks ettirilishi masalalari tadqiq etilgan.

**Kalit so‘zlar:** boshqaruv hisobi, hisob siyosati, moliyaviy hisobotlar, moliyaviy hisobotning milliy standartlari, moliyaviy hisootlarga tushuntirishlar, boshqaruv qarorlari.

### **Annotatsiya:**

В статье исследованы вопросы управленческого учета и их отражения в учетной политике предприятия.



**Ключевые слова:** управленческий учет, учетная политика, финансовая отчетность, национальные стандарты бухгалтерского учета, пояснения к финансовым отчетам, управленческие решения.

Boshqaruv hisobining maqsadi javobgar (mas’uliyat) markazlar, faoliyat sohalari bo‘yicha boshqaruv qarorlari ishlab chiqilishi uchun zarur axborotni buxgalteriya hisobida qayd etish va tizimlashtirib borishdir. Shuning uchun yirik bo‘lgan firma va korporatsiyalarda daromadlar, xarajatlar va foyda hisobi ko‘plab mas’uliyat markazlari bo‘yicha tashkil qilinadi. Bunda boshqaruv hisobi va moliyaviy hisob o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik turli usullar bilan maxsus (aks ettiruvchi, parallel, kesishuvchi, yig‘ib taqsimlovchi) hisoblar yordamida amalga oshiriladi. Moliyaviy hisob rasman qabul qilingan standartlar va tamoyillar asosida yuritiladi. Aynan ana shu standart va tamoyillar moliyaviy axborotning yozilishi, baholanishi va topshirilishini tartibga solib turadi. Buxgalteriya hisobining qonunchilikda belgilab qo‘yilgan qoidalari kreditorlar manfaatini himoya qilib, olinadigan axborotga ishonchni kuchaytiradi, lekin buxgalterianing usul va uslubiyatlarini tanlash imkoniyatini chegaralaydi.

Barcha korxonalar tashkiliy-huquqiy shakllaridan qat'iy nazar moliyaviy hisobni mamlakatdagi buxgalteriya hisobi milliy standartlariga muvofiq holda yuritishlari shart. Buxgalteriya hisobi milliy standartlari alohida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar hisob siyosatini ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat kiladi.

**Hisob siyosati** - bu korxona rahbariyati tomonidan tasdiqlangan buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tuzish bo'yicha usullar va shakllar jamlanmasidir.

Amaldagi qonunchilikka binoan korxonada buxgalteriya hisobini yuritishning quyidagi shartlariga amal qilish lozim:

- hisob siyosatini ishlab chiqish
- joriy yil davomida ayrim xo'jalik muomalalarini qayd qilish va qonunda ko'rsatilgan tartibda sub'ektning mulkini baholash tartibini belgilovchi qabul qilingan hisob siyosatiga amal qilish;
- joriy yilda amalga oshirilgan xo'jalik muomalalarini to'la aks ettirish va mulk va majburiyatlarining inventarizatsiya ma'lumotlarini to'g'ri va to'liq yuritish;
- buxgalteriya hisobining schotlar rejasи, tegishli standartlarga asosan va buxgalteriya hisobi va hisoboti tugrisidagi Nizomga muvofiq daromad .va xarajatlarni joriy yilda to'g'ri hisobga olib borish;
- hisobni tashkil qilishda ishlab chiqarish va muomala bo'yicha joriy xarajatlarni va kapital qo'yilma xarajatlarini ajratgan holda hisobga olish.

Hisob siyosatini ochib berish lozim. Moliyaviy hisobotlarga tushuntirishlarda hisob siyosati to'g'risidagi bo'lim quyidagilarni bayon qilib berishi kerak:

1. Moliyaviy hisobotni tayyorlash chog'ida foydalanilgan (foydalanilayotgan) baholash asosi (asoslari);
2. Moliyaviy hisobotlarni aniq tasavvur etishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan hisob siyosatining har bir maxsus qismi;
3. Hisob siyosatida biror o'zgarish sodir bo'lganda tushuntirish hisoboti.

Moliyaviy hisobotlarni tuzishda foydalaniladigan maxsus hisob siyosatiga qo'shimcha ravishda hisobotdan foydalanuvchilar uchun moliyaviy hisobotlarda foydalaniladigan baholash asosini (asoslarini), ya'ni dastlabki qiymatni, joriy qiymati, sotish qiymatini, diskont qiymatni va balans qiymatini anglash juda muximdir. Bu tamoyillar ko'p jixatdan uzlusizlik qoidasiga o'xshash bo'lib, ular moliyaviy hisobotni tuzishning asosini shakllantiradi. Ular ana shu tamoyillardan ba'zi vaziyatlarda baholash asoslarini tanlab olish imkoniyati mavjudligi bilan farq qiladi.

Agar moliyaviy hisobotda baholashning bittadan ortiq asosidan foydalanilsa,



masalan asosiy vositalarning muayyan turini baholash chog‘ida bitta asosdan foydalanilsa o‘lchashning alohida asosi ko‘llanilgan aktivlar va majburiyatlar toifasi aks ettirilishini ko‘rsatish zarur. Hisobotdan foydalanuvchi uchun hisob siyosatining o‘ziga xos jihatlarini ochib berishda ustuvorliklarni belgilashda xo‘jalik yurituvchi sub’ektning duch kelishi mumkin bo‘lgan xatarlarini va kelgusidagi pul mablag‘i harakatlanishini baholashga imkon berishini e’tiborga olishi lozim.

BHMS ga binoan hisob siyosatini ochib berish quyidagi axborotlarni o‘z ichiga oladi, lekin shu axborotlar bilan cheklanib qolmaydi:

1. Foydani aks ettirish;
2. Jamlash tamoyillari;
3. Faoliyat turlari bilan qo‘shib olib borish;
4. Birgalikdagi faoliyat;
5. Moddiy va nomoddiy aktivlarning aks etishi va eskirishi (amortizatsiyasi);
6. Jalb etilgan mablag‘lar qiymatining kapitallashuvi va o‘zga xarajatlar;
7. Kapital sarflar;
8. Investitsiya mulki;
9. Moliyaviy vositalar va investitsiyalar;
10. Ijara;
11. Tadqiqot va taraqqiyot bilan bogliq xarajatlar;
12. Tovar - moddiy zahiralar;
13. Soliqlar, jumladan muddati kechiktirilgan soliqlar;
14. Zahiralar;
15. Xodimlarni saqlab turish xarajatlari;
16. Xorijiy valyutani o‘tkazish;
17. Faoliyat turlarini, jug‘rofiy segmentlarni hamda xarajatlarni segmentlar o‘rtasida taqsimlash usulini belgilash;
18. Pulning qadrsizlanishini hisobga olish;
19. Hukumat subsidiyalari.

Boshqa ochib berishlar.

Xo‘jalik yurituvchi sub’ekt, agar boshqa moliyaviy hisobotlarda tushuntirishlarda ochilmay qolgan bo‘lsa, quyidagi axborotlarni ochib ko‘rsatishi lozim:

1. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektning huquqiy shakli, ta’sis etilgan mamlakat va ro‘yxatga olingan idoraning yuridik manzili (yoki amaliy faoliyatning manzili ro‘yxatga olingan idora manzilidan farq qilsa, amaliy faoliyat joyi aniq ko‘rsatiladi);
2. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar asosiy faoliyati operatsiyalari mohiyatining tavsifi;
3. Bosh kompaniya yoki guruh bosh kompaniyasining nomi;



#### 4. Xodimlarning ro'yxatdagi o'rtacha soni.

Ta'kidlash lozimki, kichik biznes sub'ektlarining ko'pchiligidagi hisob siyosati ishlab chiqilgan emas. Buning sabablaridan biri hisob yuritish xodimlarining bilimlari va malakaviy darajasi barcha hollarda ham zamonaviy talablarga javob bera olmasligidir. Shuning uchun kichik biznes sub'ektlari uchun korxona hisob siyosatining namunaviy ko'rinishlarini ishlab chiqilishi va tavsiya etilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Ilmiy nashrlarda kichik biznes sub'ektlarida buxgalteriya hisobini yuritishni takomillashtirish va uni zamon talablari darajasiga ko'tarish bo'yicha takliflar olg'a surilmoqda. Moliya vazirligi tomonidan bu takliflarning umumlashtirilishi, kichik biznes korxonalarini uchun soddalashtirilgan hisoblar rejasini, boshlang'ich hujjalarning eng muhim turlarining tavsiya etiladigan namunalarini, kichik korxonada buxgalteriya hisobining tashkiliy tuzilmasi va vazifalar taqsimotini, hujjatlar aylanishini namunaviy sxemasini o'z ichiga olgan kichik korxona namunaviy hisob siyosati ishlab chiqilishi zaruriyati sezilmoqda. Mazkur hujjatni 20-sonli BHMS ning tarkibiy qismi sifatida qabul qilinishi ham o'zini oqlagan bo'lar edi. Chunki yuqoridagilar tadbirkorlik erkinligi cheklanishini bildirmaydi, balki kichik korxonada moliyaviy intizom va moliyaviy nazoratni mustahkamlashga xizmat qiladi, kichik tadbirkorlik sub'ektiga nisbatan kreditorlar va potensial investorlarning ishonchlarini oshiradi, korxona faoliyati to'g'risidagi ishonchli axborotning zarur darajada oshkorali va shaffofigini ta'minlaydi.

Shuningdek, kichik korxonalar hisob siyosatini ishlab chiqishda boshqaruvin hisobi doirasidagi masalalariga alohida e'tibor qaratish zarur. Chunki busiz korxona menejmentini erkin iqtisodiyot muhiti talab etayotgan darajaga ko'tarib bo'lmaydi. Zamonaviy korxona faoliyati puxta va uzuksiz olib boriladigan budgetlashtirishga asoslanadi. Tannarx hisobini yuritishda standart-kostingga tayanish zarur bo'lib bormoqda. Korxona menejmentida mahsulotlar turlari yoki mas'uliyat markazlari bo'yicha xarajatlar me'yorlarini oqilona belgilash hamda me'yorlarga rioya etilishi ustidan mutnazam nazorat olib borilishini ta'minlash, ishlab chiqarish hajmi-xarajatlar-foyda tahlilini olib borish o'ta muhim o'rin egallamoqda. Mazkur vazifalar ijro etilishining axborot bazasini boshqaruvin hisobini yuritish orqali ta'min etiladi. Shuningdek, korxonaning buxgalteriya hisobi tuzilmasi mazkur vazifalarni to'g'ridan-to'g'ri bajarib borishi lozim bo'ladi.

Shuningdek, kichik biznes korxonaning hisob siyosati korxonada normativ kalkulyatsiya, abzorpsion-kosting va direkt-kosting tizimlaridan foydalanishni nazarda tutmog'i lozim. Boshqaruvin hisobi xarajatlar hisobi, xarajatlarning turkumlanishi, mahsulot tannarxi kalkulyatsiyasi, korxona budgetini tuzish va



ijrosini nazorat qilishni ham o‘z ichiga oladi. Bu vazifalar oqilona bajarilishi uchun tannarxni tashkil etuvchi xarajat moddalari klassifikatsiyasini belgilab olish, ustama xarajatlarni taqsimlashdagi mezonlarga, korxona budgeti o‘z ichiga oladigan jadvallar va natural-moddiy va qiymat balanslarining shakllariga nisbatan bir xil talablar qo‘yilishi ham kichik biznesda qarorlar qabul qilinishi jarayoni puxtaligini yaxshilashga yordam berishi mumkin.

Demak, zamonaviy kichik korxonadagi buxgalteriya hisobi o‘zining mazmuni bo‘yicha moliyaviy hisob va boshqaruv hisobining integratsiyalashgan tizimidan iborat bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar :**

1. Egamberdieva S.R. Moliyaviy va boshqaruv hisobi. O‘quv qo‘llanma. -T.: Fan va texnologiya, 2019. 289 b.
2. Norbekov D., Misirov K., Tashmanov G‘. Moliyaviy va boshqaruv hisobi. O‘quv qo‘llanma. -T.: Iqtisod-moliya, 2018. -194 b.
3. Xasanov B., G‘aniev Z., Muxammedova D. Boshqaruv hisobi. O‘quv qoilanma. -T.: Iqtisod-moliya, 2018. -279 b.
4. Karimov A., Kurbanbaev J., Jumanazarov S. Buxgalteriya hisobi. Darslik. -T.:Iqtisod-moliya, 2019. - 512 b.
5. Karimov A., Kurbanbaev J., Jumanazarov S., Xalilov Sh. Moliyaviy hisob va hisobot. O‘quv qo‘llanma. —T.: Iqtisod-moliya, 2018. - 400 b.
6. Kuljonov O., Ortiqov X., Yugay L., Tuxsanov X., M.Xayitboev Moliyaviy hisob. O‘quv qo‘llanma. —T.: Iqtisod-moliya, 2018. -246 b.
7. Pardaev A., Pardaev B. “ Boshqaruv hisobi” T.: G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2014 yil 251 b.
8. Sobirjon o’g’li, J. E., & Abdulazizovich, X. U. B. SUPPORTING SMALL BUSINESS SUBJECTS BY TAX REFORMS.
9. Abdulazizovich, X. U. B., & Muhabbat, N. (2024). INCREASING COMPETITIVENESS IN THE COMMODITY MARKET IN INDUSTRIAL ENTERPRISES. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 42(1), 197-206.
10. Xolmirzayev, U. B., & Xakimova, G. Z. (2024). SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI AMALGA OSHIRISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMI. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 10, 96-98.



11. Gulshirin, J., & Abdulazizovich, X. U. B. (2022, March). INCREASING THE EFFICIENCY OF INVESTMENT IN THE DEVELOPMENT OF EXPORT DIVERSIFICATION IN THE REGION. In Conference Zone (pp. 277-281).
12. Abdulazizovich, X. U. B. Moliyaviy aktivlar hisobini yuritishda xalqaro standartlar qoidalari qo'llash masalalari. Ilmiy monografiya. Toshkent–2023.
13. Abdulazizovich, X. U. B., & Abdullajanovich, U. T. (2024). SANOAT ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYAT YO 'NALISHLARI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 41(5), 17-21.
14. Xolmirzayev, U. B., & Ergashev, I. (2024). SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISH TIZIMI. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 3(5), 109-115.
15. Abdulazizovich, X. U. B. (2024). MOLIYAVIY AKTIVLAR TASNIFINI TAKOMILLASHTIRISH. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 41(2), 82-86.
16. Khakimov, J. B., & Kholmirzayev, A. U. (2021). Positive Aspects Of Cash Method In Small Enterprises In The Context Of Pandemic. Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry, 12(7).
17. Холмирзаев, У. А., & Камолдинов, О. О. (2022). АСПЕКТЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРЕДСТАВЛЕНИЯ ИНФОРМАЦИИ О ДЕБИТОРСКОЙ ЗАДОЛЖЕННОСТИ ПО ОБОРОТНЫМ СРЕДСТВАМ В БУХГАЛТЕРСКОМ БАЛАНСЕ. Экономика и социум, (5-2 (92)), 767-779.
18. Холмирзаев, У. А., & Самижонова, Ш. С. (2022). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОТРАЖЕНИЯ ДЕНЕГ В БУХГАЛТЕРСКОМ БАЛАНСЕ. Экономика и социум, (5-2 (92)), 755-766.
19. Холмирзаев, У. А. (2023). ДЕБИТОР ҚАРЗЛАРИНИ АЙЛАНИШИ ТАҲЛИЛИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ: ДЕБИТОР ҚАРЗЛАРИНИ АЙЛАНИШИ ТАҲЛИЛИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ.
20. Холмирзаев, У. А. (2021). October). ҚИСҚА МУДДАТЛИ ҚИММАТЛИ ҚОҒОЗЛАРНИ АНАЛИТИК ҲИСОБИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. In "ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM.
21. Xolmirzayev, U. A., & Xakimova, G. A. (2023). XO'JALIK YURITUVCHI SUB'EKTLARDA DEBITOR QARZLARINING AYLANISHI TAHLILIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR: XO'JALIK YURITUVCHI





SUB'EKTLARDA DEBITOR QARZLARINING AYLANISHI TAHLILIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR.

22. Abdulazizovich, K. U. (2023). POSITIVE ASPECTS OF THE CASH METHOD IN SMALL ENTERPRISES UNDER UNUSUAL CIRCUMSTANCES. ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603, 12(11), 38-47.
23. Khakimov, B. J., Alimov, B. B., Kholmirzayev, U. A., & Polechov, A. X. theory of Economic Analysis. Tashkent" economics-finance"—2013.
24. Ubaydullaev, T., & Holmirzaev, U. (2018). PECULIARITIES OF TAXATION OF INDIVIDUALS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. Экономика и социум, (11 (54)), 54-57.
25. Kholmirzaev, U. B. A., & Ubaydullayev, T. A. (2023). Improving the classification of financial assets according to the economic content. Educational Research in Universal Sciences, 2(1), 203-209.
26. Xolmirzaev, U. B. A., & Madaliev, M. R. (2023). MOLIVIY HISOBOTLARNING QAYTA KO 'RIB CHIQILISHIDA XALQARO TALABLARGA RIOYA ETILISHI ZARURLIGI. Educational research in universal sciences, 2(3), 424-432.
27. Xolmirzaev, U. B. A., & Madaliev, M. R. (2023). MOLIVIY HISOBOTLARNING QAYTA KO 'RIB CHIQILISHIDA XALQARO TALABLARGA RIOYA ETILISHI ZARURLIGI. Educational research in universal sciences, 2(3), 424-432.
28. Kamalov, A. A., & Xolmirzayev, U. A. (2016). Small business and private entrepreneurship in Uzbekistan. Questions of Economics and Management, 5(7), 6.
29. Умурзаков, Д. X. (2023). БИЗНЕС ШАРОИТИДА КОРХОНАЛАРДА ТОВАР МОДДИЙ-БОЙЛИКЛАР ҲИСОБИННИ ҲИСОБ СИЁСТИГА МУВОФИҚ ЮРИТИШ: БИЗНЕС ШАРОИТИДА КОРХОНАЛАРДА ТОВАР МОДДИЙ-БОЙЛИКЛАР ҲИСОБИННИ ҲИСОБ СИЁСТИГА МУВОФИҚ ЮРИТИШ.
30. Dilshodbek, U., & Toxirjon, U. (2023). Improvement of Methods of Assessing the Investment Climate of the Regions of the Republic of Uzbekistan. Journal of Survey in Fisheries Sciences, 10(2S), 3460-3471.
31. Xakimovich, U. D. (2022). ANALYSIS OF FINANCIAL SUSTAINABILITY ANALYSIS OF BUSINESS PROCESSES IN THE BUSINESS PROCESS. INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE &

**Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies**

**Hosted online from Paris, France.**

**Date:** 19<sup>th</sup> June - 2024

**ISSN:** 2835-3730

**Website:** econferenceseries.com

---

INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor:  
7.429, 11(05), 143-148.

32. Abdulkhodievna, S. M., & Khakimovich, U. D. (2021). SYSTEMIC BASES OF STATE REGULATION OF SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(12), 63-69.

